



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2023 - yil 1 - may

166-11-0-F/23

Farg‘ona viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28, 126-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrda “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-33-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi 285-sonli va 2021 yil 6 dekabrda “Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash hamda Toshkent shahrida boshpanasiz, og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 737-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash hamda viloyat moliya bosh boshqarmasining bildirishnomasi va Furqat tumani hokimining 2023 14 apreldagi 01-20/423-sonli murojaatini inobatga olib,**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi 285-sonli hamda 2021 yil 6 dekabrda 737-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, jumladan uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan ijtimoiy daftarlarga kiritilgan extiyojmand fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida fuqaro F.Axunovani ijtimoiy uy-joy bilan ta‘minlash uchun Furqat tumani Sho‘xay MFY hududida yangi qurilgan uydan 2 xonalik xonadon sotib olish uchun viloyat mahalliy byudjetining 2023 yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan 230,0 (ikki yuz o‘ttiz) million so‘m mablag‘ Furqat tumani mahalliy byudjetiga o‘tkazib berilsin.

2. Furqat tumani hokimligi (J.Jumanov)ga:

mazkur ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uni belgilangan tartibda Sho‘xay MFY hududida yangi qurilgan uydan kvartira sotib olish uchun yo‘naltirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 dekabrda 737-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga ko‘ra sotib olinadigan xonadonni ijara huquqi asosida fuqaro F.Axunova nomiga biriktirish bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli xujjatlarni rasmiylashtirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni moliya va g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliev)ga mazkur ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda Furqat tumani mahalliy byudjetiga o‘tkazib berish, viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.G‘oyipov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash hamda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (S.Jo‘raev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida hisobotlarni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishini nazoratga olsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Urinboev zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**X.Bozarov**